E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan talon-taroj jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish muammolari

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-54

Adxamov Nursulton Akmaldin o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

Elektron pochta manzili: nursultonadxamovs@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda barcha sohalarda raqamlashtirish va yangidan yangi texnologiyalarning ushbu sohalarga kirib kelishi avj olmoqda. Ushbu holat, o‘z navbatida ushbu soha bilan bog‘liq munosabatlarni murakkablashtiradi. Mazkur maqolada aynan kompyuter texnologiyalari sohasidagi talon-taroj jinoyatlarining kvalifikatsiya masalasi azkur maqolada aynan kompyuter texnologiyalari sohasidagi talon-taroj jinoyatlarining kvalifikatsiya masalasi yoritiladi hamda ushbu masala bilan bog‘liq ba’zi muammolarga yechim taklif qilinadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq jinoyatlarning adolat bilan baholanishida ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar

Jinoyat kodeksi, talon-taroj, kvalifikatsiya, kompyuter texnikasi, o‘g‘rilik, rastrata, firibgarlik, raqamli texnologiya.

Adkhamov Nursulton

Student of Master’s degree at Tashkent state university of law

E-mail address: nursultonadxamovs@gmail.com

ABSTRACT

Today, digitization in all areas and the penetration of new technologies into these areas is gaining momentum. This situation, in turn, complicates relations related to this field. In this article, the question of the qualification of robbery crimes in the field of computer technologies is discussed in this article. Today, the correct qualification of crimes related to digital technologies is of great importance in the fair assessment of them.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Key words

Criminal Code, robbery, qualification, computer technology, theft, rastrata, fraud, digital technology.

Адхамов Нурсултон Акмалдин угли

Магистрант Ташкентского государственного

юридического университета

Адрес электронной почты: nursultonadxamovs@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Сегодня цифровизация во всех сферах и проникновение в эти сферы новых технологий набирает обороты. Эта ситуация, в свою очередь, осложняет отношения, связанные с этой сферой. В данной статье рассматривается вопрос квалификации разбойных преступлений в сфере компьютерных технологий. Сегодня при справедливой оценке преступлений, связанных с цифровыми технологиями, большое значение имеет их правильная квалификация.

Ключевые слова

УК, разбой, квалификация, компьютерная техника, кража, растрата, мошенничество, цифровая техника.

Jinoyat huquqida jinoyatni kvalifikatsiya qilish deganda, jinoyatning jinoyat-huquqiy normada mustahkamlab qo‘yilgan belgilari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va muvofiqligi, shuningdek, uni huquqiy jihatdan mustahkamlash tushuniladi. Jinoyat qonunchiligining vazifalaridan asosiysi – sodir etilgan ayb uchun javobgarlik tamoyiliga asoslangan holda qilmishda aybning mavjud ekanligini aniqlash va ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat qonuniga ko‘ra to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishdir.

“Kvalifikatsiya” atamasi lotinchadan olingan bo‘lib, “qualification” – qanday sifatli, “facere” – qurmoq so‘z birikmalaridan tashkil topgan va uning ma’nosi – muayyan mavjud narsa, voqeaning sifatini aniqlash, uni ma’lum guruh, toifaga kiritish hisoblanadi. Jinoyat huquqiga oid adbiyotlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasiga turlicha ta’rif berilgan. Ulardan to‘g‘riroqlari quyidagicha: “ma’lum bir qilmishning jinoyat qonunchiligida ko‘zda tutilgan u yoki bu jinoyat tarkibining xususiyatlariga mos kelishi”[1]; “mazkur xususiyatlarning aniq mos kelish yoki kelmasligini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash”[2]; “sodir etilgan ijtimoiy

[1] Герцензон А.А. Квалификация преступлений. - М., 2007. – С. 151.
[2] Благов Е.В. Применение уголовного право (теория и практика). – СПб., 2004. – С. 505.

xavfli qilmishni jinoyat huquqiy baholash, ushbu qilmish belgilarini eng to‘g‘ri ta’riflaydigan huquqiy normani tanlash va unga nisbatan qo‘llash”[3] va hokazo.

Jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish muhim yuridik ahamiyatga ega va buni quyidagilardan ham bilish mumkin:

1) jinoyatning kvalifikatsiyasi qonuniy va adolatli hukm uchun muhim asos sifatida xizmat qiladi, vhunki agar qilmish boshqa modda bilan kvalifikatsiya qilinsa, yengilroq yoki og‘irroq jazoga sabab bo‘lishi mumkin[4];

2) jinoiy javobgarlikka loyiq qilmish boshqa huquqbuzarliklar va axloqqa zid bo‘lgan harakatlardan farqlaydi;

3) sodir etilgan jinoiy qilmish toifasiga mos holda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tashning shartllariga asos sifatida xizmat qiladi;

4) jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish asnosida javobgarlikka tortilgan shaxsni muddatidan ilgari ozodlikka chiqarish, jazoni yengilrog‘iga almashtirish, javobgarlikdan ozod qilish va boshqa shu kabi masalalar to‘g‘ri va adolatli hal qilinadi;

5) to‘g‘ri kvalifikatsiya yordamida jinoyatning retsidiv, xavfli retsidiv va o‘ta xavfli retsidiv ekanligi aniqlanadi;

6) jinoyatning kvalifikatsiyasi alohida kriminologik ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki rasmiy statistikani yurgizishda aynan qaysi jinoyat sodir etilganli to‘g‘ri baholanishi kerak, shunga ko‘ra, ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashiladi;

7) bir qator jinoyat-protsessual qoidalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish bir qator: jinoyat qonunchiligini rivojlantirish, jinoyat protsessini to‘g‘ri va qonuniy olib borish, adolatli hukm chiqarish, jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zgalar mulkini kompyuter texnologiyalari vositasidan foydalanib talon-taroj qilish jinoyatlarining kvalifikatsiyasi bir qator murakkabliklarga ega, chunki mazkur jinoyatlarning jinoyat tarkibi bilan bog‘liq o‘ziga xos muammolari mavjud.

O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-taroj qilish jinoyatlarini sodir etib, aybdor bir paytning o‘zida ijtimoiy xavfli qilmishning asosiy bevosita obyekti bo‘lmish mulk va mulkiy huquqlarga hamda qo‘shimcha bevosita obyekt bo‘lgan axborot tizimi, kompyuter tarmoqlari xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi. Bu esa, o‘z navbatida, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining turli normalari o‘rtasidagi raqobatga sabab bo‘ladi. Ayni bir vaqtda, mazkur holatda ijtimoiy xavfli qilmish bir vaqtning o‘zida ikki obyektga tajovuz qilganligi sababidan jinoyatlar majmui sifatida Jinoyat kodeksining kompyuter vositalaridan foydalanib mulkni talon-taroj qilganlik uchun hamda axborot texnologiyasi sohasidagi tegishli jinoyat normasi bilan javobgarlik belgilashni nazarda tutadi. Misol tariqasida quyidagi keysni ko‘rib o‘tsak: Farg‘ona viloyati “Qishloqqurilishbank”ning

[3] Коржанский М.И. Квалификация преступлений. – Киев, 2000. – С. 10-11.
[4] Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: Darslik. / R.Kabulov, A.Otajonov, I.Sottiyev va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B. 89.

So‘x tumani filiali pul muomalasi bo‘limida plastik kartalar bo‘yicha mutaxassisi bo‘lgan S. ismli shaxs o‘zining xizmat vakolatlaridan foydalanib juda ko‘p miqdordagi (165 mln. so‘mdan ortiq) pul summasini kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda o‘zi tomonidan qonunga xilof tarzda rasmiylashtirilgan hisob raqamga “Jismoniy shaxslarning plastik kartalar bo‘yicha majburiyatlari” hisob raqamidan pul o‘tkazib keyin esa, ushbu pullarni talon-taroj qilgan. Mazkur sud ishi bo‘yicha sud qilmishni JK 167-moddasi uchinchi qimi “a” va “g” bandlari, 205-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi, 209-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi hamda Jinoyat kodeksi 278^1-, 278^2- va 278^4-moddalari bilan jinoyat majmui sifatida kvalifikatsiya qilgan. Ushbu holatda sud aybdorning qilmishiga JK 278^1-, 278^2- va 278^4-moddalarini qo‘llab noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilgan. Buning sababi shuki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 05.05.2008 yildagi “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi 13-son Qarori qoidalariga ko‘ra, agar sodir etilgan jinoyat jinoyatlar majmui sifatida sodir etilib, barcha jinoyatlar JKning og‘irroq javobgarlik belgilaydigan bitta moddasi bilan qamrab olinsa, aynan o‘sha bitta modda bilan jazo tayinlanadi. Bir qancha jinoyat sodir etilib, jinoyatlarning biri boshqasining sodir etilishi usuli bo‘lib xizmat qilsa, ushbu jinoyat JKning og‘irroq javobgarlik belgilaydigan bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Yengilroq javobgarlik belgilaydigan modda bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi[5]. Ushbu qoidadan kelib chiqsak, aybdor o‘zga shaxs mulkini kompyuter vositasidan foydalanib talon-taroj qilishi jarayonida kompyuter tizimida saqlanayotgan ma’lumotlarga zarar yetkazishi holatiga talon-tarojning sodir etilishi vositasi sifatida qaralati va aybdor qilmishi jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilinishi talab etilmaydi.

O‘zgalar mulkini kompyuter vositasidan foydalangan holda firibgarlik usuli bilan talon-taroj qilish jinoyatining predmeti – naqd bo‘lmagan pul summalari, o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqi ko‘rinishida ifodalanadi va buni sud amaliyoti ham tasdiqlaydi. Jumladan, quyidagilardan foydalanib sodir etilgan harakatlar o‘zgalar mulkini kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib firibgarlik yo‘li bilan talon-taroj qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak:

– hisobraqam egasining nomidan maxsus “bank-mijoz” tizimi orqali yuborilgan sohta elektron to‘lov topshiriqnomasidan. Ushbu holat obyektiv tomondan kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirishni, kompyuter axborotidan foydalanishni va uni modifikatsiyalashtirishni o‘zida namoyon etadi va bu naqd bo‘lmagan pul mablag‘larining aybdor hisobraqamiga o‘tkazilishiga sabab bo‘ladi;

– masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish dasturlaridan. Ushbu dasturlar orqali aybdor mijoz pul mablag‘larini o‘z shaxsiy hisobraqamiga yoki o‘zi foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa hisobraqamga o‘tkazishni nazarda tutuvchi to‘lov topshiriqnomasi yuboradi;

– tashkilot yoki korxona bank hisobraqamini qonunga zid tarzda boshqarish, unda bank kompyuter axborotini saqlash, qayta ishlash imkonini beradigan bank kartasidan;

[5] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 05.05.2008 yildagi “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi 13-son Qarori

– soxta mehnat shartnomalari orqali, ular asosida aslida yo‘q bo‘lgan xodimlar uchun oylik maoshlar yozish va axborot tizimiga bu bilan bog‘liq qalbaki ma’lumotlar kiritish yo‘li bilan;

– avval kredit olgan jismoniy shaxslar uchun maxsus ishlab chiqilgan dastur orqali rasmiylashtirilgan kredit kartalardan;

– zararli dasturlar orqali olingan mijozlarning login va parollaridan foydalangan holda.

Sodir etilgan jinoyatning obyektiv tomonini tahlil qilish orqali mazkur qilmish kvalifikatsiyasiga oid ba’zi munozarali holatlarga ham duch kelamiz. Zero, sodir etilgan qilmishni o‘zgalar mulkini kompyuter vositasidan foydalangan holda talon-taroj qilish deb baholash uchun qilmishning bevosita kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilganligiga e’tibor qaratish lozim. Bu shuni anglatadiki, o‘zgalar mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata qilish, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish, ochiqdan-ochiq yoki yashirin talon-taroj qilish bilan bog‘liq qilmishni kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib amalga oshirishida ifodalanadi. Agar ayblanayotgan shaxs mol-mulkni egallash bilan bog‘liq harakatlarni kompyuter vositasidan foydalanmagan holatda sodir etsa, u kompyuter talon-taroji hisoblanmaydi. Chunki, kompyuter vositasidan foydalangan holda talon-taroj qilishda kompyuter texnikasi aloqa, ya’ni, muloqot vositasi vazifasini bajarmaydi, balki axborot tizimida saqlanayotgan ma’lumotlarni modifikatsiya qilish orqali talon-taroj sodir etilishini osonlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan fikr-mulohazalarga tayanadigan bo‘lsak, jinoyatni sodir etayotgan shaxs aldov harakatini bevosita o‘zi amalga oshirib, undan keyingina kompyuter vositalari orqali o‘z hisobraqamiga naqd bo‘lmagan pul mablag‘larini ko‘chirsa, ushbu qilmish kompyuter vositalaridan foydalangan holda talon-taroj qilish jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi. Buning sababi, aybdor qilmishini kompyuter vositalaridan foydalangan holda firibgarlik yo‘li bilan talon-taroj qilish sifatida baholanishi uchun firibgar aldov yoki ishonchni suiiste’mol qilishni kompyuter vositalaridan foydalanib, kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni modifikatsiya qilish orqali amalga oshirishi kerak. Shunga asosan, bizning vaziyatda ijtimoiy xavfli qilmish oddiy firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Kompyuter firibgarligi jinoyatida aybdor qilmishning zaruriy belgisi bo‘lmish aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish harakatini bevosita o‘zi amalga oshirishi mumkin bo‘ladi va ushbu aldash va suiiste’mol qilishni kompyuter tizimida saqlanayotgan ma’lumotlarni modifikatsiya qilish orqali amalga oshiradi.

Shu o‘rinda kompyuter xavfsizligini buzib kiruvchi maxsus dasturlarni boshqa birovdan olib talon-tarojni sodir etishda, dasturni olgan va bergan shaxslar qilmishi kvalifikatsiyasi masalasiga ham to‘xtalib o‘tish darkor. Agar shaxs shaxsan o‘zi ushbu turdagi dasturlarni yaratsa va ulardan foydalanib talon-taroj jinoyatini sodir etsa, uning qilmishi faqat kompyuter vositasidan foydalanib talon-taroj qilish sifatida baholanadi va qo‘shimcha ravishda Jinoyat kodeksining kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirish bilan bog‘liq moddalari (JK 278^3, 278^6) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi. Bundan kelib chiqadiki, Oliy sud Plenum qarorida aytilganidek, qilmish bitta modda bilan qamrab olinsa, boshqa modda bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan aybdor dasturni boshqa shaxsdan olib jinoyatni amalga oshirsa, dasturni yaratib bergan shaxs, dasturni olgan odamning g‘araz niyatidan xabardor bo‘lsa, talon-tarojning yordamchisi sifatida, bexabar bo‘lganda esa, aniq holatlardan kelib chiqqan holda, JK 278^3-moddasi (Kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatish) yohud 278^6-modda (Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish) bilan javobgarlikka tortilishi kerak. Ushbu jinoyatlar ham, aytib o‘tganimizdek, faqat to‘g‘ri qasd orqali, g‘araz niyatda sodir etiladi.

Agar mansabdor shaxs boshqa yuridik shaxslarni nazorat qilish va ularga ishlarni bajartirishga vakolatli bo‘lsa hamda mansab vakolatidan chetga chiqqan holatda, qo‘l ostidagi yuridik shaxslarga vazifalarni bajartirish va nazoratni kuchaytirish maqsadida ularning roziligisiz kompyuter vositasi orqali pul mablag‘larini boshqa uchinchi shaxslar hisobraqamiga o‘tkazsa, uning qilmishi kompyuter texnikasi vositasidan foydalangan holda rastrata qilish sifatida baholanmaydi. Buning sababi ushbu holatda mansabdor shaxs harakatlarida g‘araz niyat mavjud emasligida izohlanadi.

Aybdor sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish amaldagi Jinoyat kodeksining 167-moddasi uchinchi qismi “g” bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi uchun bir qator belgilarning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi talab etiladi. Ular, jumladan, quyidagilar:

birinchidan, mol-mulk faqatgina naqdsiz ko‘rinishda bolishi;

ikkinchidan, mulk aybdor ixtiyorida operativ va xo‘jalik huquqi asosida turganligi;

uchinchidan, aybdorning axborot tizimi ma’lumotlaridan qonuniy foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lishi;

to‘rtinchidan, naqd bo‘lmagan pulning kompyuter tizimida turganligi;

beshinchidan, agar jinoyatni sodir etgan shaxs tashkilot, muassasa va korxonaga tegishli bo‘lgan mulkni o‘zlashtirsa yoki rastrata qilsa ushbu talon-taroj qilingan summa O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61-moddasida belgilangan miqdordan oshiq bo‘lishi.

Endi esa telefon firibgarligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, telefon firibgarligi o‘g‘rilik deb kvalifikatsiya qilinmaydi, buning sababi elektron-raqamli kod xususiy mulk hisoblanmaydi. Shuningdek, telefon firibgarligi kompyuter vositasidan foydalanib firibgarlik yo‘li bilan mulkni talon-taroj qilish jinoyati ham hisoblanmaydi, chunki uni amalga oshirishda kompyuter tizimidan foydalanilmaydi, balki qo‘lbola avtomatlashtirilgan qurilmalardan foydalaniladi.

Oxirgi vaqtlarda telefon firibgarliklari soni tobora ortib bormoqda. Shu vaziyatdan kelib chiqqan holda ushbu turdagi jinoyatlarni ham keng ko‘lamda tahlil qilish va jinoyat qonunchiligiga kriminalizatsiya qilish jinoyat qonunchiligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o‘zganing mulkini an’anaviy tarzda talon-taroj qilish va kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda talon-taroj qilish jinoyatlari o‘zining bir qator xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Ushbu tafovutlar esa, o‘z navbatida, ularni kvalifikatsiya qilish bilan bog‘liq bir qator qiyinchilik va muammolar tug‘diradi. Mazkur vaziyatni ijobiy hal qilish uchun biz Jinoyat kodeksini yangi “O‘zganing mulkini kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda talon-taroj qilish” 169[1]-moddasi bilan to‘ldirishni taklif qilamiz. Barcha kompyuter talon-taroji jinoyatlari bitta moddaga birlashgan taqdirda ularning kvalifikatsiyasi masalasi ijobiy hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Герцензон А.А. Квалификация преступлений. - М., 2007. – С. 151;
2. Благов Е.В. Применение уголовного право (теория и практика). – СПб., 2004. – С. 505;
3. Коржанский М.И. Квалификация преступлений. – Киев, 2000. – С. 10;
4. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: Darslik. / R.Kabulov, A.Otajonov, I.Sottiyev va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B. 89;
5. To‘rtinchi sanoat inqilobi / Klaus Shvab, tarjimon Sarvinoz Qosimova. – Toshkent. NIHOL, 2022. – 248 b;
6. Шеслер А. Мошенничество: проблемы реализации законодательных новелл // Уголовное право. 2013. № 2. С. 67–71;
7. Комаров А.А. Об уточнении понятия «компьютерное мошенничество» в свете законодательных инициатив Верховного Суда РФ // Юрист. 2013. № 17. С. 33–36;
8. Волеводз А.Г., Волеводз Д.А. Уголовное законодательство об ответственности за компьютерные преступления: опыт разных стран // Правовые вопросы связи. 2004. № 1. С. 37–48;
9. Терещенко Л.С., Шебанов Д.В. О некоторых спорных аспектах определения вымогательства // Бизнес в законе. 2013. № 6. С. 85–89;
10. Батурин Ю.М. Проблемы компьютерного права. – М.: Юридическая литература, 1991. – 126 б.

WORDLY KNOWLEDGE